XALQ DEPUTATLARI GURLAN TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 24 - iyul VI-83-94-12-171-K/23 Gurlan tuman hokimligi

Tumandagi ayrim ko‘chalarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 26-apreldagi 242-son bayonnomasi va Gurlan tuman hokimiligining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 5-maydagi 08-03298-son xati va unga ilova qilingan ekaspert komissiyasi xulosasini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Gurlan tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 26-apreldagi 242-son bayonnomasi va Gurlan tuman hokimiligining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumanda nomlari o‘zgaradigan ko‘chalarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (S.Axmedov), Kadastrlar palatasi Gurlan tuman filiali (Z.Allaberganov) nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni, shuningdek, yangidan

nomlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin hamda tumandagi barcha idora va tashkilotlarga ushbu qarorning yetkazilishini ta’minlasin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (T.Ibragimov) hududlarda yangi nomlangan va nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarini yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror “Gurlan hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish-kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (G.Quchqarov) zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi **U.Jumaniyazov**

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023-yil 24-iyuldagi
VI-83-94-12-171-K/23-son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar
1	2	3	4	5
1	tor ko‘cha	Yormish mahallasi	nomlanmagan	Archazor-1
2	tor ko‘cha	Yormish mahallasi	nomlanmagan	Archazor-2
3	tor ko‘cha	Yormish mahallasi	nomlanmagan	Archazor-3
4	tor ko‘cha	Yormish mahallasi	nomlanmagan	Archazor-4
5	ko‘cha	Do‘simbiy mahallasi	nomlanmagan	Bog‘chaman
6	berk ko‘cha	Nurafshon mahallasi	nomlanmagan	Saodat-1
7	berk ko‘cha	Nurafshon mahallasi	nomlanmagan	Saodat-2
8	ko‘cha	Sovunchi mahallasi	nomlanmagan	Yanginihol
9	tor ko‘cha	Ma’rifat mahallasi	nomlanmagan	Kamalak-4
10	tor ko‘cha	Ma’rifat mahallasi	nomlanmagan	Kamalak-5
11	tor ko‘cha	Saxtiyon mahallasi	nomlanmagan	Muxtasar-1
12	tor ko‘cha	Jaloyir mahallasi	nomlanmagan	Pulchi-1
13	berk ko‘cha	Dehqon mahallasi	nomlanmagan	Tozabozor-2
14	berk ko‘cha	Qatariq mahallasi	nomlanmagan	Bahor-3
15	ko‘cha	Paxtakor mahallasi	nomlanmagan	Shijoat
16	ko‘cha	Qangli mahallasi	Gulchorbog‘	Olchazor
17	berk ko‘cha	Qangli mahallasi	Gulchorbog‘-1	Olchazor-1
18	ko‘cha	Qangli mahallasi	nomlanmagan	Qangli
19	ko‘cha	Marbo‘gat mahallasi	nomlanmagan	Ko‘ksaroy
20	ko‘cha	Chakkalar mahallasi	Benazir	Tovoqchi
21	ko‘cha	Chakkalar mahallasi	Benazir-1	Tovoqchi-1
22	berk ko‘cha	Birlashgan mahallasi	nolanmagan	Imom al-Buxoriy